**Аннотация:** В данной статье речь идет об исследовании реальных доходов населения, формирования общего годового дохода физических лиц, изменений тенденций состава доходов населения Узбекистана за последние годы, дан анализ динамики уровня заработной платы физических лиц, оплачивающих подоходные налоги, сведений о количестве налогоплательщиков в Узбекистане, о количестве налога и доле доходов из государственного бюджета. В ней разработаны предложения и рекомендации по налогообложению доходов физических лиц, полученных в результате реализации недвижимости.

**Ключевые слова:** налог, физическое лицо, доход, доходы населения, доходы на душу населения, реальные доходы населения, собственные доходы, социальные трансферты, заработная плата, материальная выгода, реализация имущества.

### KIRISH

O'zbekistonda bugungi kundagi iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o'ylangan chora-tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, har qanday mamlakatda fuqarolarning daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, o'sha mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishga erishiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Farmonlaridan [1] kelib chiqib, hayotga tatbiq etilayotgan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asosan "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 barobar



qisqartirish” masalasiga alohida e’tibor qaratilganligi bugungi kundagi dolzarb yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Zero mamlakatimiz Prezidenti “Xalq boy bo’lsa, davlat ham boy va qudratli bo’ladi” [2] degan g’oyani ilgari surganlari bejiz emas.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholining real daromadlarini tobora ko’paytirib borish masalalari har doim ham davlatimizning diqqat markazida turadi. Chunki, jahon tajribasidan ma’lumki, aholi daromadining yillar davomida ortib borishi bilan bir qatorda bozorda iste’mol tovarlarining narxi nazorat qilinishi ularning farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs mehnat qilish va shu qilingan mehnati evaziga ma’lum daromad olish huquqiga ega.


Zero, mamlakatimiz Prezidenti, “Samarali mehnat uchun zarur shart-sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki budjet tashkilotlarida ham, xo’jalik yurituvchi subyektlarda ham o’rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko’paytirish e’tiborimiz markazida bo’ladi [2]” deya ta’kidlab o’tdilar. Darhaqiqat, munosib turmush darajasini ta’minlash va xodimga ishlagan vaqti uchun munosib haq to’lanishi lozim. Bundan tashqari ish vaqtidan tashqarida bajariladigan ishlar, qo’shimcha ishlar uchun ham rag’bat va moddiy ta’minot berilishi ish sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy shaxslar daromadlari tushunchasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, barcha aholiga tegishli bo’lgan pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko’rsatilgan xizmatlar summasi aholi daromadlarini ifoda etadi [21]. Aholining jami turdagi daromadlari manbai — ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug’i, bank to’lagan foiz puli, ko’chmas mulkdan kelgan renta to’lovi va ijara puli, sug’urta qoplamalari kabi daromatlardan iborat.

Bozor sharoitida jismoniy shaxslar daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o’zining tomorqa xo’jaligidan ham mahsulot olib daromad ko’radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko’rsatiladi (bepul ovqatlanish, kiyimkechak, doridarmon, transport va kommunal xizmati va h. k.); bular natural daromadlar hisoblanadi. Jismoniy shaxslar daromadlari nominal va real daromatlarga bo’linadi. Nominal daromad aholi muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo’lib, inflyatsiya ta’sirida uning xarid qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad — pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste’mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko’rsatadi [24].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N.Ya.Artikova o’z tadqiqot ishida jismoniy shaxsning umumlashgan yillik daromadining tashkil topishiga alohida to’xtalib o’tgan (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy shaxsning umumlashgan yillik daromadining tashkil topishi [4]



Jismoniy shaxsning umumlashgan yillik daromadining tashkil topishi N.Ya.Artikova tomonidan tadqiq etilgan fikr va mulohazalarga tayangan holda jismoniy shaxslarning tovarlarni sotishdan kelgan daromadi ular tomonidan amalga oshirilgan tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadi tarkibiga kiritilishi, shu bilan birga mol-mulkdan keladigan daromadlar tarkibiga fuqarolarning o'zlariga tegishli mulklarini sotish hamda o'z intellektual mulkini ishlatish natijasida oladigan daromadlarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodchi olim U.S.Yuldasheva tomonidan jismoniy shaxslar daromadlari shakllanishi strukturasi ustuvor nisbatlar, mehnat natijasi taqsimoti qonuni faoliyatida namoyon bo'lishi hali shakllanmaganligi qayd etilgan. O'tish davridagi taqsimot munosabatlaridagi o'zgarishlar oqibatida aholining umumiy pul tushumlariga nisbatan daromatlardagi mehnat ulushining pasayib ketishi ma'lum cheklangan vaqtga, yil yoki yarim yilga 10 foiz atrofida o'zgarishi mumkinligi ta'kidlangan [5].

Tadqiqotlar natijasidagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda fikrimizcha jismoniy shaxslar daromadlari deyilganda, ularning ma'lum vaqt oralig'ida odatda kalendar yil davomida olgan pul mablag'lari va moddiy ne'matlari (bevosita mehnat qilish, mulklarini ishlatish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish va boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirish natijasida olinadigan daromadlar) summasi tushuniladi.

Aholi turmush darajasini yaxshilash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida "Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur" [3] ekanligini ta'kidlaganlari bejiz emas.

Harley L.Lutz "The privilege of personal income taxation" maqolasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat budjetidagi o'rni va soliq imtiyozlarini o'rgangan. Ushbu maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan beriladigan imtiyozlarning aholi daromadlarini oshirishdagi o'rni o'rganilib, Harley L.Lutzning ta'kidlashicha, davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tashkil etishi lozim, shu bilan birga aholi daromadlarini oshirish maqsadida soliq imtiyozlari deklaratsiya asosida qo'llanilishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, aholi daromadlarini oshirish maqsadida ular tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xarajatlar bo'yicha soliq imtiyozlari berilishi lozimligini e'tirof etadi [6].

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining optimal shkalasini aniqlash zamonaviy optimal soliq solish nazariyasining asosiy masalalaridir. Uning rivojlanish asosi 1971-yilda Nobel mukofoti laureati J.Mirrlisning maqolasida o'z ifodasini topgan [7]. Ushbu maqolada u F.Ramseyning tahliliy ta'rifini umumlashtirdi va kengaytirdi [8]. Shuningdek, bu sohadagi keyingi tadqiqotlarga asos bo'lgan matematik modelni ilgari surdi.

Mirrlis modelining daromad solig'iga bergan ta'rifida hukumatning maqsadi sifatida jamiyat farovonligini maksimalashtirish yotadi. Hukumatning maqsadi – soliq shkalasi shunday tanlanishi kerakki, umumiy tushumning bir qismini davlat g'aznasiga yig'ishdir.

Mirrlis ishidan keyin chop etilgan Ye.Sadka maqolasida hayratda qoldiradigan darajada va bahsli natijalarni ifoda etadigan fikr bildirilgan [9]. Keyinchalik N.Stern va J.Sid tomonidan ularga mantiqiy tushuntirish berildi [10]. Bunda daromad shkalasining eng yuqori nuqtasida soliq stavkasi nolga teng bo'lishi kerak [11]. Shubhasiz, ushbu sharoitda soliq shkalasini yaratish mumkin emas. Shu ma'noda, Mirrlis va uning izdoshlari ijtimoiy farovonlik bo'yicha soliqning soddalashtirish tahlillarini olib borishgan. Ularning yondoshuviga ko'ra, jismoniy shaxslarning daromadlarini oshirish jarayonida soliqning chiziqi va proporsional shkalalarga ajratish muhimligiga urg'u berilgan. Shuningdek, daromad solig'ining tabaqalanish tizimiga E.Sheshinskiy alohida e'tibor qaratgan [12].

V.N.Lapin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jismoniy shaxslarning daromad solig'i va uning yig'iluvchanligini oshirish masalasi o'rganilib, ushbu yo'nalishdagi o'z fikr va mulohazalarini bayon etgan [13].

Jumladan, muallif tomonidan jismoniy shaxslarning bir qancha daromadlari yashirilishi, hujjatlarda ko'rsatilmaligi, shartnoma asosida bajarilmaligi ularning daromadlarini yashirilishi bilan birga soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi – deya qayd etilib, jismoniy shaxslar tomonidan uy-joyni shartnoma qilmasdan beg'araz, tekinga boshqa shaxsga berilishi bu aniq emasligi ta'kidlanadi. Ya'ni, jismoniy shaxs o'z uy-joyini tekinga berdim - deb aslida ma'lum miqdordagi daromadni olayotgan bo'lishi mumkinligi keltiriladi.

Shuning uchun, muallif o'rganishlari asosida bir nechta takliflarni ilgari suradi. Xususan, birinchidan, mazkur uy-joy tekinga berilishidan qat'iy nazar beg'araz berish shartnomasi qilishi lozimligini va o'sha uy-joyda kimlar yashashi aniq ko'rsatilishi kerak. Bir vaqtning o'zida ichki ishlar xodimlari tomonidan shu uyda kimlar yashayotganligi nazorat qilib borilishi lozim. Agar boshqa shaxs yashayotgan bo'lsa, zudlik bilan soliq organlariga xabar qilishi kerak. Ikkinchidan, fuqaroning o'zi on-line ko'rinishida mazkur uyda yashayotganlarning holati haqida soliq va ichki ishlar organlariga xabar berib turishi kerak. Agar ikkala ma'lumot va davlat organlari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar bir-biridan farq qiladigan bo'lsa, bunday holda fuqaroga nisbatan eng yuqori stavkada moliyaviy jarima qo'llash maqsadga muvofiq.

Rus olimi A.A. Aksenova Yevropa mamlakatlaridan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish masalasiga to'xtalib, ularda soliq stavkalari judayam yuqori ekanligini soliqqa tortishning salbiy tomoni sifatida



keltirib o'tgan bo'lsa, soliqla tortiladigan bazani hisoblashda oilaviy deklaratsiya topshirilishi hamda bir qancha xarajatlar soliq solinadigan bazani hisoblashda chegirilishini ijobiy holat sifatida qayd etadi [14].

M.V. Pyanova jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlarini soliqqa tortish masalasida olib borgan tadqiqotlarida mulklarni kadastr qiymatidan kelib chiqib, soliqqa tortish, jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini budgetga ko'proq tushishini ta'minlash bilan birga bu jismoniy shaxslarga 10 barobardan ko'proq soliq og'irligini keltirib chiqarib, daromad solig'ini ijtimoiy funksiyasini yo'qqa chiqaradi degan xulosaga kelgan [15].


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy va tizimli tahlil, induksiya, deduksiya, sintez kabi usullardan foydalanilgan. Adabiyotlarni tahlil qilishda Web of Science ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanilgan. O'zbekistonda aholi daromadlari tarkibining o'zgarish tendensiyasi tadqiq etilishi va daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarning ish haqi darajasining dinamikasi, daromad solig'i to'lovchilar soni, soliq miqdori va ularning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushini tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish nuqtayi nazaridan tasniflaydigan bo'lsak, bunda har bir mamlakatning soliq qonunchiligiga mos ravishda daromadlar tasniflanadi.

Respublikamizda soliq qonunchiligi jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibi bo'yicha mukammal ishlab chiqilgan bo'lib, soliqqa tortish yuzasidan jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibini quyidagi rasm ma'lumotlari asosida ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi [16].

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi. Mehnatga haq to'lash sifatidagi daromadlar tarkibiga soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensasiya va ishlamagan vaqt uchun haq to'lashdan jismoniy shaxs oladigan daromadlar ham kiritiladi.

Daromadlar turli manbalardan tashkil etilishi, ularning daromadlariga nisbatan chegaralangan soliq munosabatlarini joriy etilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i faqat budget daromadlarini oshirishga xizmat qilish bilan chegaralanmasligi, balki aholi keng qatlamlarining turmush darajasini, ular daromadlari hamda to'lov qobiliyatlarini oshirishga ham xizmat qilmog'i lozim.

Daromadlarini soliqqa tortish jarayonining jadallashishi XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Daromad solig'i Buyuk Britaniyada 1842-yildan, Yaponiyada 1887-yildan, Germaniyada 1891-yildan, AQShda 1913-yildan, Fransiyada 1914-yildan joriy qilingan. Sobiq SSSRda 1922-yil 16-noyabrdagi Dekretga ko'ra daromad-mulk solig'i degan umumiy nom bilan joriy qilingan va 1924-yildan daromad solig'iga aylantirilgan hamda 1991-yilgacha ishchi va xizmatchilarning maoshidan tabaqalashgan shkala bo'yicha undirilgan [17].

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i davlat budjeti daromadlarida salmoqli o'rinni egallab, u umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Shuning uchun mazkur soliq har bir soliq to'lovchi subyekt hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilari soni, ular uchun hisoblangan daromad solig'i hamda jismoniy shaxslar tomonidan to'langan daromad solig'i tushumlari dinamikasi so'nggi o'n yil yakuni bo'yicha aholi daromadlarining muntazam oshayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin (1-jadval).



1-jadval. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchilar soni, ularga hisoblangan daromad solig'i va to'langan soliq summasi[20]

№	Yillar	Daromad solig'i to'lovchilar soni	Hisoblangan daromad solig'i summasi (mln.so'm)	To'langan daromad solig'i summasi (mln. so'm)	Har bir soliq to'lovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha summa (so'm)
1.	2015-yil	3 683 337	2 646 428,7	2 736 311,5	742 889
2.	2016-yil	3 800 606	2 743 268,3	2 719 136,2	715 448
3.	2017-yil	4 480 860	3 835 413,4	4 137 395,4	923 349
4.	2018-yil	4 545 217	4 648 297,3	4 876 651,3	1 072 919
5.	2019 yil	4 492 413	11 514 399,3	12 413 852,8	2 763 293
6.	2020 yil	4 586 695	14 172 728,3	15 173 716,3	3 308 203
7.	2021 yil	4 827 607	18 692 570,3	17 927 380,3	3 733 264
8.	2022-yil	5 083 637	22 978 954,4	22 723 563,3	4 469 942
9.	2023-yil	5 236 146	24 127 902,1	23 859 741,5	4 556 737
10.	2024-yil	5 393 230	25 816 855,2	25 529 923,4	4 733 697

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar ta'sirida yangi ish o'rinlari yaratilishi natijasida so'nggi yillarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilar soni doimiy ravishda ortish tendensiyasiga ega.

Soliq to'lovchilar soni ortib borishiga to'g'ri proporsional ravishda ularga hisoblangan daromad solig'i ham ortish ko'rsatkichiga ega. Shu bilan birga jismoniy shaxslar tomonidan to'langan daromad solig'i har yili ularga hisoblangan daromad solig'iga qaraganda ortiq undirilgan. Bu borada alohida e'tibor qaratish lozimki, 1-jadval ma'lumotlarida daromad solig'ini to'lovchilar sonining ortish darajasiga qaraganda ularga hisoblangan daromad solig'i hamda ular tomonidan to'langan soliqlar keskin ortish tendensiyasiga ega.

Mazkur holatni 2019-yildan e'tiboran jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi yagona 12 foiz qilib belgilanganligi, bunda aksariyat jismoniy shaxslarning daromadi avvalgi progressiv stavkadagi 0 va 7,5 foizlik stavkalariga to'g'ri kelishi hisobiga ular tomonidan to'lanadigan soliq stavkasi birdaniga 12 foizga o'zgarishi, shuningdek aholining real daromadi miqdorining o'sishi bunda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 223000 so'mdan [18] 679 330 so'mga [19], ya'ni 3 barobardan ortiq oshirilishi, bundan tashqari yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan yakka tartibdagi tadbikorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliqning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bilan unifikatsiya qilinishi kabi ta'sir etuvchi omillar bilan izohlash mumkin.

Soliq to'lovchilar soni ortib borishiga to'g'ri proporsional ravishda ularga hisoblangan daromad solig'i ham ortish ko'rsatkichiga ega. Shu bilan birga jismoniy shaxslar tomonidan to'langan daromad solig'i har yili ularga hisoblangan daromad solig'iga nisbatan ortiq undirilgan, ya'ni hisoblangan daromad solig'i summasiga nisbatan to'langan daromad solig'i summasi 2021-yilning o'zida 1 369,8 mlrd.so'mga farq qilgan.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'langan daromad solig'i summasi hisoblangan daromad solig'i summasidan ortiqcha undirilishining sababi quyidagicha:

birinchidan, jismoniy shaxslarning turar hamda noturar mulklarini norasmiy ijaraga berishi yoki bino-inshootlarning sotilishi, faoliyat ko'rsatayotgan norasmiy ishchi va xizmatchilarning noqonuniy daromad olishi (aksariyat hollarda qurilish va umumiy ovqatlanish sohasi)ni qonuniylashtirish natijasida soliq qarzlarning qisqartirilishi;

ikkinchidan, jismoniy shaxslar tomonidan deklaratsiya topshirilishi natijasida qo'shimcha aniqlangan summalar undirilishi bilan izohlash mumkin.

Har bir soliq to'lovchiga to'g'ri keladigan o'rtacha soliq summasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yillar davomida to'langan daromad solig'i miqdori ko'payish tendensiyasiga ega ushbu holatni jismoniy shaxslarga to'lanadigan ish haqining miqdori yildan-yilga ko'payishi hamda daromad solig'ining stavkasi ko'proq daromadga nisbatan yuqori soliq stavkasi qo'llanilishi bilan asoslash mumkin.

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, soliqlar bo'yicha imtiyoz yoki yengilliklar qo'llanilmaydigan mamlakatlar deyarli uchramaydi. Demak soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilarni rag'batlantirish yoki qo'llab-quvvatlash o'zining ijobiy xususiyatlariga ega hisoblanadi. Jismoniy shaxslarga nisbatan soliqlardan imtiyozlar qo'llanilishi va samaradorligi bo'yicha muhimligining bir necha sabablariga to'xtaladigan bo'lsak:




1. Ixtiyoriy daromadni oshiradi;
2. Pensiya jamg'armalarini rag'batlantiradi;
3. Uy-joy mulkdorligini qo'llab-quvvatlaydi;

Umuman olganda, soliq imtiyozlari jismoniy shaxsning soliq majburiyatlarini kamaytirish va ixtiyoridagi daromadlarini oshirish orqali uning moliyaviy farovonligida muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda alohida hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar uchun 2021-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar joriy etildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 14 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-714-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan Soliq kodeksiga O'zbekiston Respublikasining ayrim hududlarida soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha alohida bob kiritildi. O'zbekiston Respublikasining alohida hududlarida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolar uchun 2021-yil 1-yanvardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 1 foiz stavka qo'llanilishini nazarda tutuvchi soliq solishning alohida tartibi belgilandi. Soliq solishning alohida tartibiga ega O'zbekiston Respublikasining alohida hududlariga Farg'ona viloyatining So'x tumani, Rishton tumanining Cho'ng'ara mahallasi, shuningdek Farg'ona tumanining Shohimardon, Yordon mahallalari va Hosilot mahallasining Toshtepa – 2 ko'chasi kiradi.

O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari summasi va ushbu imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, (3-rasm).



3-rasm. O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari summasi va ushbu imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar soni o'zgarishining dinamikasi, (mln.so'mda) [20].

Yuqoridagi 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2018-2022-yillarda O'zbekistonda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlari summasi va ushbu imtiyozlardan foydalangan jismoniy shaxslar soni o'zgaruvchan tendensiyaga ega bo'lgan. Xususan, daromad solig'idan taqdim etilgan imtiyoz summasi 2018-yilda 109 339,8 mln.so'mni, 2019-yilda 187 755,4 mln.so'mni, 2020-yilda 629 624,4 mln.so'mni, 2021-yilda 605 758,8 mln.so'mni, 2022-yilda 783 104,3 mln.so'mni tashkil etgan. Imtiyoz summasi 2022-yilda 2018-yilga nisbatan 673 764,5 mln.so'mga yoki 7 barobardan ortiq ko'paygan.

Shuningdek, imtiyozdan foydalangan jismoniy shaxslar soni 2018-yilda 5 409 tani, 2019-yilda 19 155 tani, 2020-yilda 132 941 tani, 2021-yilda 154 743 tani, 2022-yilda 130 076 tani tashkil etib, mazkur davrda imtiyozdan foydalangan jismoniy shaxslar soni 130 076 yoki 7,8 barobarga ortgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qo'llanilgan imtiyoz summasining 2020 va 2022-yillarda keskin ravishda ortib ketish holatini so'nggi ikki yilda soliq qonunchiligida amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, jumladan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilishi, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan inson qadri uchun olib borilayotgan oqilona siyosatlarini natijasida daromad solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar sonining keskin ko'payishi, shuningdek qo'llanilayotgan imtiyoz



summalarining tarkibiy o'zgarishi ya'ni ayrim imtiyozlar bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan emas balki mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan belgilanganligi bilan izohlash mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda soliq tizimida chuqur o'ylangan chora-tadbirlar, shu jumladan, jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i budjet-soliq munosabatlarining kichik tizimi sifatida, xususan, ularning daromadlaridan bir qismini davlatning markazlashtirilgan fondini tashkil etish uchun davlat budjetiga olib qo'yish jarayonida yuzaga kelgan munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Shu tufayli, daromad solig'ini to'lovchi jismoniy shaxslar hisobining yuritilishi, ularning har qanday manbadan olinadigan daromadlarini to'liq soliqqa tortilishini ta'minlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda deklaratsiyalash amaliyotini bosqichma-bosqich qo'llanishi mamlakatda yashirin iqtisodiyotga, pul mablag'larining noqonuniy aylanishiga, korrupsiya va poraxo'rlikka hamda iqtisodiyot sohasidagi boshqa jinoyatlarning vujudga kelishi va uning oldini olishga xizmat qiladi.

- mamlakatimiz aholisi tarkibi va ularning tarkibida faol aholi ulushi, aholining daromatlari tarkibi, soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni va buning tarkibida soliq idoralariga deklaratsiya taqdim etgan jismoniy shaxslar soni, ular tomonidan to'langan daromad solig'i miqdorini o'rganar ekanmiz, tahlillar natijasida bugungi kunda jismoniy shaxslarning soliqqa tortilmay qolib ketayotgan daromatlari ham tarkiban ko'p ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu daromatlarni soliqqa tortishni takomillashtirish muhim ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi;

- jismoniy shaxslar tomonidan mulkida bo'lgan turar joylarni sotish natijasida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishda sotiladigan mulklarning yegallagan maydoniga nisbatan (mulklarni ijaraga berish bo'yicha qo'llaniladigan me'yorlar singari) joylashgan joyi bo'yicha eng kam me'yorlar belgilash masadga muvofiq.

Yuqorida keltirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'liq va o'z vaqtida undirilishiga erishiladi, natijada budjet daromatlari barqarorligi ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. //Xalq so'zi. 2022-yil 28-yanvar.
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" Toshkent - "O'zbekiston" – 2017 y 126 va 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. 29-bet.
4. N.Ya.Artikova "Daromadlarni soliqqa tortish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2004. 67-bet.
5. U.S.Yuldasheva "Iqtisodiyotning transformatsiyalanishi jarayonida aholi daromadlarining shakllanishi va taqsimlanishi" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2001. 67-bet.
6. Harley L. Lutz «The privilege of personal income taxation». Source: The Bulletin of the National Tax Association, Vol. 23, No. 1 (October, 1937), pp. 11-22. Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/41786912>.
7. Mirrlees J.A. An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation. Review of Economic Studies. 1971. No. 38. P. 175-208.
8. Ramsey F.A. Contribution to the Theory of Taxation // Economic Journal. 1927. No. 37. P. 47-61.
9. Sadka E. On Income Distribution, Incentive Effects, and Optimal Income Taxation// Review of Economic Studies. Vol. 43. P 261-268, 1976.
10. Stern N.H. On the Specification of Models of Optimum Income Taxation// Journal of Public Economics. 1976. Vol. 6. P. 123-162
11. Seade J. On the Shape of Optimal Tax Schedules// Journal of Public Economics. 1977. Vol. 7. P. 203-236.
12. Sheshinski E. The Optimal Linear Income Tax// Review of Economic Studies. 1972. Vol. 39. P. 297-302.
13. В.Н. Лапин. "Налог на доходы физических лиц и пути повышения его собираемости". Вестник. 2008. №2(21). 88-90 стр.
14. А.А. Аксенова «Налог на доходы физических лиц»: европейская практика администрирования налога. Интернет-журнал «Науковедение». Выпуск 3, май – июнь 2014.
15. М.В. Пянова «Лготы по налогу на имущество физических лиц как инструмент реализации социальной функции налога». Финансовая аналитика: проблемы и решения. 16 (2016) 44-52.
16. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. T.: Adolat 2025-y.
17. O'zbekiston Respublikasi milliy ensiklopediyasi (D harfi) 207-bet.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son farmoni.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-dekabrda PQ-4555-son farmoni.
20. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ([www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)) ma'lumotlari.
21. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/aholi-daromadlari-uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---